



## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT-MODUL TIZIMINI JORIY ETISH XUSUSIYATLARI

*Malikova M.B.*

*Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti*

*Ilmiy rahbar- Sayfullayeva G.I.*

*Navoiy davlat pedagogika instituti professori*

**Tayanch so'zlar:** kredit- modul tizimi, modular, yondashuv, o'quv jarayoni, edvayzerlar, korrupsiya, shaxsiy o'quv trayektoriyasi, o'quv davrlari.

**Ключевые слова:** кредитно - модульная система, модульная, подход, учебный процесс, воспитатели, коррупция, личная траектория обучения, циклы обучения.

**Key words:** credit - modular system, modular, approach, educational process, educators, corruption, personal learning trajectory, learning cycles.

Kredit-modul tizimi, bu - ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting ball asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi. Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovasion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib,



zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaniy kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir. Keling, shu o'rinda modul va kredit tushunchalari mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz [1].

Modul - bu, bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabaniy faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi. Xorijiy tajribaga ko'ra, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2-4 tagacha moduldan iborat bo'ladi. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o'zaro uzviy to'ldirish printsipi asosida shakllantiriladi. Talaba mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi [2].

Kredit-modul sharoitida oliy ta'lim muassasalarida "modul" tushunchasini mazmun bilan to'ldirishda muammolar paydo bo'lmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, modullarni shakllantirish uchun asosiy fanlarni aniqlashda qiyinchiliklar tug'ilmoqda. Modul tushunchasini izohlashda ikki xil yondashuvdan foydalaniladi :

- 1) modullar - mazmun va tematik shaklda tashkil qilinadi;
- 2) modullar - tashkiliy, tuzilmaviy talablar tamoyiliga ko'ra shakllantiriladi.

Birinchi yondashuvda modul deganda ta'lim dasturi doirasida muayyan o'zaro bog'langan yaxlitlikni tashkil etadigan fanlar bloki tushunilib, u dasturning umumiy tuzilmasi ichidagi mantiqiy quyi tuzilma sifatida qaraladi [3]. Ta'lim moduli mustaqil bo'lib, o'quv fanlari to'plamini ifoda etuvchi, yo'nalish bo'yicha o'quv rejasining birligi sifatida talqin qilinadi. Modulga berilgan ikkinchi yondashuvda uning didaktik maqsadlar, o'quv materialining mantiqan yakunlangan birligi, uni o'zlashtirish uchun uslubiy qo'llanma va nazorat tizimini o'z ichiga olgan o'quv fani tarkibidagi nisbatan mustaqil tashkiliy-uslubiy majmua tushuniladi. Bunda modul fanning o'quv-uslubiy majmuini hosil qiladi. Respublikamizda "modul" atamasi ko'pincha o'quv fanining majmuasi sifatida tushunilmoqda. Ilg'or oliy ta'lim muassasalarining tajribasiga ko'ra, modul kursning bir qismi, masalan, fanning taqvimiy muddatlarga bo'lingan mantiqan yakunlangan qismi



sifatida ham tushuniladi. Har bir modulni o'zlashtirish, ya'ni unda belgilangan vazifalarni bajarish fanni o'rganish natijasida qo'yiladigan yakuniy bahoning bir qismini tashkil etadi va bu jihatdan modulli tamoyil reytingga o'xshaydi. Yevropa OTMLarida har bir kurs yakunlariga ko'ra qo'yiladigan umumiy ball, odatda, to'planma effektga ega bo'lgan bir nechta komponentlardan tarkib topgan bo'ladi. Masalan, umumiy bahoning 30 foizi talabaniing ma'ruza va seminarlardagi akademik faolligi, 30 foizi oraliq sinov (berilgan mavzu bo'yicha esse, mustaqil ta'lim, test shaklida oraliq nazorat va h.k.) natijalari, qolgan 40 foizi esa imtihon bahosiga bog'liq bo'lishi mumkin. Ko'p darslar (mashg'ulotlar) ni o'tkazib yuborgan, oraliq nazoratdan muvaffaqiyatli o'ta olmagan talaba faqatgina imtihondagi qoniqarli bahoga umid qilishi mumkin. Va aksincha, joriy vazifalarni bajarish davomida faollik ko'rsatadigan, yuqori reyting to'plagan talaba, hatto imtihonda butunlay qoniqsiz javob bergan taqdirda ham, yuqori yakuniy baho olishi mumkin [4]. Biroq bunday yondashuv modulning ta'lim dasturidagi boshqa fanlarga nisbatan talabaniing o'zlashtirish ko'rsatkichini hisobga olmaydi. Har bir modul mustaqil hisoblanadi. Kredit-modul tizimda har bir modul ta'lim dasturining tugallangan segmenti bo'lishi kerak, talaba tomonidan ba'zi bir kompetensiyalar to'plamining egallanishi esa uni o'zlashtirish natijasi hisoblanadi. Ushbu kompetensiyalar majburiy tartibda tekshirilishi va baholanishi kerak. Albatta, kompetensiyalar juda uzoq vaqt (kamida bir semestr va ehtimol, bir necha semestr) davomida shakllanadi. Semestr ichida nisbatan tugallangan qismlarni baholash uchun modul emas, balki "bo'lim", "kichik bo'lim", "mavzu" tushunchalari foydaliroq bo'ladi. Modul o'quv kursining alohida qismi, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida o'zlashtirilgan bir nechta o'quv mavzularini birlashtiruvchi mavzuviy blok sifatida tushunilishi mumkin. Yevropa OTMLarida ta'lim dasturi boshqacha tuzilishga ega: bitta modul doirasida umumiy maqomidan qat'i nazar, tematik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan fanlar birlashtiriladi. Modul tuzilishining asosiy tamoyili oddiydan murakkabga, metodologik fanlardan amaliy fanlarga ko'tarilishdir. Shuning uchun modul tarkibida "umumkasbiy" fanlar ham, "kasbiy" fanlar va hokazolar ham mavjud bo'lishi mumkin. O'quv moduli doirasida fundamental fanlar ham, amaliy fanlar ham uyg'un bir butunlikka birlashtiriladi [5]. Masalan, Germaniyada modul deganda ta'lim darajasini o'zlashtirish yo'nalishlaridan biri, kursning emas, balki ta'lim dasturining alohida qismi tushuniladi. Modulli tizimning muhim xususiyati uning talabalar amaliyotiga, shu jumladan, tadqiqotlarga yo'naltirilganligidir. Modul talabaga konseptual bilim va amaliy ko'nikmalarni birlashtirgan holda, bir yo'nalishdan ikkinchisiga, bir darajadan ikkinchisiga tez va samarali o'tishga imkon beradi. Shuning uchun magistratura bosqichida o'quv jarayonini modulli tashkil etish magistrantning individual dasturi (uning magistrlik dissertatsiyasi



mavzusi) bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishini taqozo qiladi. Yevropa oliy ta'lim doirasida bir nechta kurslar (fanlar) modul deb nomlanadi. Modul muayyan fan sohasi haqida yaxlit tasavvur hosil qiladi va talaba ushbu modulni o'zlashtirib bo'lganidan so'ng namoyish qilishi kerak bo'lgan muayyan kompetensiyalar darajasini ko'rsatishga imkon beradi. Modul mavzu bilan emas, balki talabaning ta'lim natijasiga erishishi bilan belgilanadi. Bir semestrda modullar soni talaba semestr davomida qanday natijalarga erishishi kerakligiga qarab belgilanadi [6].

O'quv jarayonini tashkil etishning kredit-modul tizimi quyidagi vazifalarning ijobiy hal etilishini ta'minlashga qaratilgan:

- har bir modulning o'zlashtirilishini tekshirgan holda, o'quv materialini modullarga bo'lish;
- bilimlarni baholash shkalasidan foydalanish;
- bilimlarni baholashning ob'ektivligini oshirish;
- semestr davomida talabalarning tizimli mustaqil ishlarini rag'batlantirish;
- o'qishda sog'lom raqobatni joriy etish. ECTS (Evropa kreditlarni o'tkazish va to'plash tizimi)ga ko'ra, Yevropa OTMLarida o'quv yili o'rtacha 40 hafta davom etadi (O'zbekiston OTMLarida 30 hafta). Talabaning bir yilda o'quv yuklamasining umumiy yuklamasi 60 kreditga tenglashtirilgan. Shundan kelib chiqib, talaba bir semestrda 30 kredit yig'ishi lozim. Respublika OTMLarida “kredit birligi” va ichki “akademik soatlar” tizimi o'rtasida bir nechta tafovutlar mavjud. Birinchidan, barcha OTMLarda o'quv rejalar bir xil emas, balki real o'quv rejaları olinadigan bo'lsa, akademik soat umumiy yuklamani emas, balki auditoriya yuklamasini o'z ichiga oladi.

Ikkinchidan, har bir kredit birligi ortida vaqt sarfi emas, balki o'zlashtirilgan bilim va egallangan kompetensiyalar turadi. Kredit-modul tizimida talaba ma'lum bir davr mobaynida diplom olish uchun kredit to'plashi mumkin. Kreditlarning to'planishi talabaga butun hayoti davomida malaka oshirishga, qo'shimcha oliy ma'lumot olishga imkon beradi. Kreditlarni talaba o'qish davrida yig'ib boradi va kreditlar yo'qolmaydi. Agar talaba biror bir sabab bilan OTMdan chetlatilsa ham, to'plagan kreditlarni keyinchalik o'qishni davom ettirishda foydalanishi mumkin, shuningdek, ular qayta hisobga olinishi ham mumkin. Bunda talabaga ikkinchi oliy ma'lumot olishi ancha osonlashadi. Muayyan sharoitlarda kreditlar talabaning mutaxassislik bo'yicha ish tajribasini oliy ta'limning komponenti sifatida hisobga olishga imkon beradi.

Kredit-modul tizimida kreditlarni hisoblash tajribasi ushbu yondashuvlarni takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Bu kredit tizimi o'quv yuklamasining hajmi, kursni yoki o'quv dasturini o'zlashtirish uchun sarflangan vaqt me'yorini belgilash uchun zarurdir [7]. Talabaning o'quv jarayonidagi faoliyatida fan, uning murakkabligi, ixtisoslashuvi va boshqa yuklamalarni hisobga oladi.

O'quv yuklamalarini quyidagicha taqsimlash tavsiya etiladi:

- auditoriya yuklamasi, u o'quv hajmining taxminan 50 foizini tashkil qiladi;
- talabanning mustaqil ta'limining umumiy hajmining 50 foizi bo'lishi kerak;
- kurs bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlarni o'qish va konspektlar tayyorlash 20 foiz;
- yozma ishlarni bajarish 20 foiz;
- sinovlarga tayyorgarlik ko'rish 10 foiz. Amalda, kreditlarni hisoblashda bitta sinov kreditining auditoriya yuklamasining soatlar soniga nisbati oliy ta'lim muassasalarida turlicha, jumladan, 1:18 dan 1:6 gachani tashkil qiladi. Bu yuklamani kreditlarga o'tkazishga mexanik yondashuv paytida yuzaga keladigan muammolar saqlanib qolmoqda. Kafedralar faoliyatida nomutaxassislik fanlariga katta soatlarning berilishi, ixtisoslik fanlariga esa kam miqdorda kreditlar berilishi kuzatilmoqda. Bu esa talabalar tomonidan olingan bilimning kredit me'yorlari bilan o'zaro bog'lanishiga imkon bermaydi [8].

Nomutaxassislik fanlar uchun kreditlar (soatlar) sonini kamaytirish, talabalarning referatlar, kurs ishlari va bir vaqtning o'zida katta hajmdagi qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib chiqadigan maxsus fanlar va modullar uchun soatlar sonini ko'paytirish lozim. Shuningdek, yuklama sifatida kreditlar soni fan (o'quv moduli) mazmunining xarakteri va talabanning bo'lajak kasbiy faoliyati uchun ahamiyati darajasini belgilashi kerak. Shu bilan birga, kredit-modul tizimi o'zining afzalliklariga ega bo'lib, diplom olgandan keyingi ta'lim dasturlarini qo'shib hisoblaganda, bir o'quv dasturidan ikkinchisiga o'tish davrida talabalarning mobilligini oshirishiga xizmat qilishi lozim. Kreditlarni to'lash tizimi talabanning nafaqat o'quv yuklamasini, balki uning barcha yutuqlarini, ilmiy tadqiqotlar, anjumanlar, fan olimpiadalari va boshqa tadbirlardagi ishtirokini ham hisobga olishi lozim. Ta'lim dasturini shakllantirishning modulli tamoyilidan foydalanib, OTM komponentidagi "ahamiyatsiz fanlar"dan xalos bo'lish mumkin.

Modullar ixtisoslik tamoyiliga muvofiq (odatda ular shakllantiradigan kompetensiyalarga qarab - umummilliy, vositaviy, kommunikativ va b.) birlashtirilgan bir nechta kurslarni o'z ichiga olishi mumkin. O'quv dasturining bo'linishi va qisman "yaxlitlov" muammosini hal qilgan holda, sinov birliklari qo'shilgan tarzda ham shakllantiriladi [9].

Sinov birliklarining roli akademik yuklamani akademik soatga nisbatan kattaroq birliklarda baholash orqali ta'lim jarayonida foydalanishda kengroq maqsadni ko'zlashi lozim. Sinov birliklari:

- mazkur o'quv fani uchun turli xil mashg'ulotlar: ma'ruzalar, seminarlar, laboratoriyalar va boshqalarning nisbiy ahamiyatini hisobga olishi;





akademik soat yuklamasiga nisbatan tatbiq etiladi. Ya'ni  $240 \text{ k.b.} \cdot 25 \text{ a.s.} = 6000$  umumiy akademik yuklama kelib chiqadi.

4. Har bir fanning o'quv rejasidagi fanlarga kredit belgilashda 5 kreditdan kam bo'lmagan o'quv yuklamasi belgilanadi. Masalan, matematika (o'quv reja bo'yicha =  $600 \text{ a.s.}$ ) =  $600 \text{ a.s.} : 30 \text{ k.b.} = 20 \text{ k.b.}$  4. O'quv rejasining barcha elementlari bo'yicha sinov birliklari yig'indisi 240 kredit birligiga teng bo'lishi lozim. O'quv rejasini tashkil etuvchi fanlar yoki modullar bo'yicha kreditlarni taqsimlashda ta'lim natijalariga yo'nalganlikdan kelib chiqib, umumnazariy xarakterga ega fanlarga kamroq kreditlar berilishi maqsadga muvofiq. Hozirda yuklamani soatdan kreditga o'tkazishning ishlab chiqilayotgan barcha metodikalaridan yuqorida tavsiflangan yondashuvdan ko'proq foydalanilmoqda.

Ushbu metodika yillik va semestr ECTS standartlarini buzmaganda (mos ravishda 60 va 30 k.b.), har bir komponentning o'quv dasturining yaxlitligidagi roli (tutgan o'rni)ni hisobga olishga imkon beradi va kurs birligining talaba o'qishni bitirganidan keyin ega bo'lishi kerak bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirishdagi roldan kelib chiqqan holda, uning kredit salmog'ini aniqlashga imkon beradi. Ushbu yondashuv, o'z navbatida, ta'lim dasturini tuzishning modulli tamoyiliga mos keladi. Ushbu metodikalar ta'lim dasturi — o'quv fani, bitiruv malakaviy ishi, o'quv amaliyotini kredit birliklarida ifodalangan hajmi, ularning soat ekvivalentini emas, balki ta'lim dasturining umumiy ko'rsatkichiga nisbatan o'zlashtirish ko'rsatkichini belgilaydi.

#### Adabiyotlar:

1. Sayfullayeva G.I. Astronomiya mashg'ulotlarida talaba kreativligini kredit- modul tizimida innovatsion texnologiyalar va xalqaro ta'lim dasturlari asosida oshirish metodikasi// "Birinchi Rennans: Abu Rayhon Beruniy va tabiiy fanlar evolyusiyasi" nomli Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 25-may, 2023-yil. Navoiy shahri
2. Sayfullayeva G.I., S. Qurbonova Kredit- modul tizimining imkoniyatlari va muammolari// Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari mavzusidagi 3- sonli respublika ilmiy- amaliy onlayn konferensiyasi materiallari to'plami 2023
3. Sayfullayeva G.I., A.M.Bozorova Kredit- modul tizimida talabalarning mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etish// Yangi O'zbekiston Talabalari Axborotnomasi 2023 Iyul 1- Jild, 7- Son –B.24-27
4. Sayfullayeva G.I. Kredit- modul tizimida talabalar kompetentligini innovatsion texnologiyalar va ta'lim dasturlari asosida o'qitishni baholashda nostandart testlardan foydalanish// Fizika fanini axborot va innovatsion texnologiyalar muhitida o'qitishning zamonaviy tendensiyalari: muammo va yechimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami 2023
5. Sayfullayeva G.I., M. Malikova, A. M. Bozorova The use of innovative technologies in the organization of independent education //Web Of Technology Multidimensional Research Journal 2023
6. Sayfullayeva G.I., M. Malikova, A. M. Bozorova Advantages of independent education in the credit module system in education// Web Of Discoveries Journal Of Analysis And Inventions 2023
7. Sayfullayeva G.I., M. Malikova, A. M. Bozorova Opportunities for the use of innovative technologies in the organization of independent education in the credit-module system //Web Of Humanities Journal Of Social Sciences And Humanitarian Research 2023



8. Sayfullayeva G.I., M. Malikova, A. M. Bozorova Final control work distant.tsul.uz download instruction to the distance learning platform// web of teachers inderscience research 2023

9. Sayfullayeva G.I., M. Malikova, A. M. Bozorova Relevance Of Independent Educational Activities Of Students In The Credit-Modular Education System //Open Academia: Journal Of Scholarly Research 2023

10. Sayfullayeva G.I., M. Malikova, A. M. Bozorova Modern Forms Of Organization Of Independent Work Of Students As A Pedagogical Problem Wire Insights // Journal Of Innovation Insights 2023

11. Sayfullayeva G.I., M. Malikova, A. M. Bozorova Elements Of The Credit-Module System In Higher Education In The Republic Of Uzbekistan //Web Of Technology Multidimensional Research Journal 2023

#### РЕЗЮМЕ

"O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi"da oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrda Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi"ga ko'ra mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalarining 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi.

#### РЕЗЮМЕ

"Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года" направлена на внедрение цифровых технологий и современных методов обучения в образовательные процессы высшего образования, широкое вовлечение молодежи в научную деятельность, борьбу с коррупцией, увеличение доли студентов, обучающихся по направлениям инженерно-технического образования, внедрение кредитно-модульной системы, повышение практических навыков в учебных планах. определены конкретные задачи по увеличению доли практического обучения по целевым специальностям. Согласно "концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года", утвержденной Указом Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года, до 2030 года планируется поэтапный переход 85% высших учебных заведений страны на кредитно-модульную систему. В ближайшие годы он будет работать в кредитно-модульной системе практически всех высших учебных заведений страны

#### SUMMARY

"The concept of the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030" is aimed at the introduction of digital technologies and modern teaching methods into the educational processes of higher education, the widespread involvement of young people in scientific activities, the fight against corruption, increasing the proportion of students studying in the fields of engineering and technical education, the introduction of a credit-modular system, improving practical skills in the curricula. Specific tasks have been identified to increase the share of practical training in target specialties. According to the "concept for the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030", approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 8, 2019, a phased transition of 85% of higher educational institutions of the country to a credit-modular system is planned by 2030. In the coming years, he will work in the credit-modular system of almost all higher educational institutions in the country